O‘RTA OSIYO SHAYXLARINING ELCHILIK ALOQALARIDA TUTGAN O‘RNI

Shamsiddin Usmonjonovich Nurkosimov
O‘zMU I kurs tarix yo‘nalishi magistri
tel: (99)1029733

Qoroxoniylar davriga kelib, hukmdorlar tomonidan din peshvolariga nisbatan, hurmat etibor kuchaydi. Temuriylar davriga kelib esa bu munosabat o‘zining yuqori cho‘qqisiga yetdi. Masalan, Muiddin Natanziyning (XIV-asr oxiri XV-asr boshi) asarida keltirishicha, Amir Temur o‘z davrining yirik shayxi Sayyid Barakaga juda hurmat ko‘rsatgan va uni o‘zining piri sifatida bilgan1.

Bunday munosabat xonliklar davrida ham mavjud bo‘lgan. Masalan, Shayboniylar hukmronligi davrida yirik shayxlarga e’tibor juda katta bo‘lgan, shu boisdan ular siyosiy-iqtisodiy jihatdan katta nufuzga ega bo‘lgan. Muhammad Shayboniyxonning (1451-1510) hokimyat tepasiga kelishida ham shayxlarning muhum o‘rni bor. Chunki u yoshligida Buxoro madrasalarida ta’lim olgan vaqtidan boshlab, yirik shayxlar bilan yaqin munosibatda bo‘lgan. Q. Rajabovning Shayboniyxon haqida yozishicha, Muhammad Shayboniyxon shu davrda katta mavqega ega bo‘lgan, Amir Abdulali Tarxon zamonida Buxoro mulkida yashagan. U Bahouddin Naqshbandning nevarasi Nizomiddinxo‘ja Mir Muhammad Naqishbandiy dargohida xizmatda bo‘lgan. U Muhammad Shayboniyga yangi o‘zbek saltanatini tuzish uchun Turkiston viloyatiga borib, aynan o‘sha yerda kurash boshlashini takidlaydi2. Shayxlarning ko‘magi unga markazlashgan davlat qurishida asqotadi. Xususan, shayx Mansur Muhammad Shayboniyxonning markazlashtirish siyosatini qo‘llab quvvatlaydi. A.Qandahorovning ilmiy izlanishlariga ko‘ra, bu shayxning “O‘rtasidan emas, chetidan boshlash kerak”,-

---

1 Muiniddin Natanziy Muntaxab ut-tavorixi muiniy (Muiniy tarixlari tanlanmasi). - T.: O‘zbekiston 2026. -107 b.

2 Rajabov Q. Shayboniyxon. Buxoro mavjlari. 2026. - 45-49 b.

degan ramziy ishorasiga muvofiq, Muhammad Shayboniyxon avvalo yaqin atrofdagi beklarga murojaat qilib, ularni Temuriylar hokimyatini butunlay tugatishga da'vat etadi hamda Movarounnahrni bir chetidan bosib olishni boshlaydi"[3].

Muhammad Shaybonixon vafotidan so'ng esa siyosiy vaziyat o'zgaradi Shayboniy sultonlar o'rtasida taxt uchun kurashlar avjiga chiqadi. Bu davirda ichki va tashqi elchilik aloqalarida faol ishtirok etgan shayxlar tufayli bir qator qirg'inbarot urushlarning oldi olinadi. Masalan, shunday zotlardan biri Mahdumi A'zamdir (1461-1542). U hazrati Xoja Ahror Valiyning Toshkentda yashayotgan eng yaqin shogirdlari va o'rinbosarlaridan biri bo'lgan Mavlano Muhammad Qozining eng sevikli shogirdlaridan edi[4]. Katta nufuzga ega bo'lgan Muhammad Qozi (1516 v.e) vafotidan so'ng Naqshbandiya tariqatining barcha movarounnahirlik vakillari tomonidan Mahdumi A'zam o'zlariga "peshvoyi tariqat" (tariqat peshvosi) sifatida etirof etiladi[5]. O'sha zamon taqozosi tufayli Mahdumi A'zam podsholar o'rtasidagi nizolarni bartaraf etish, xalqni jipislashtirish, ijtimoiy-siyosiy sohalarida ancha faol bo'lgan. Mahdumi A'zamning ba'zi manbalarda elchilik munosabatlarida u yoki bu podshohlarning kelishmovchiliklariga, urushlariga chek qo'yganligi haqida ma'lumot bor. Mahdumi A'zamning muridlari orasida ko'plab hukumdorlar, davlat arboblari shoiru ulamolar, o'z davrining taniqli insonlari bo'lgan. Jumladan, Shayboniy hukumdorlardan Ubaydullaxon (1533-1539h.q), Abdulazizxon (1550v.e), Jonibek Sulton (1529v.e) Kiston qora sulton (Balx xoni, 1526-1540) Temuriylardan Zahiriddin Muhammad Bobur (1483-1530), tariqat shayxlaridan xoja Muhammad Islom (1494-1563) lar unga qo'l berib murid tutgan. D.Toshevaning quydagi

3 Qandaharov A. Buxoro xonligi va unda Karmanalik shayxlik faoliyati. – T.: Tafakkur qanaoti nashiryoti 2018. – 33 b.

4 Kattaev K.Mahdumi A'zam va Dahbed.-Samarqand:So'g'diyona. 1994. - 8 b.

5 Farg'ona vodiysi tarixi yangi tadqiqotlarda mavzusida ikkinchi respublika anjumani. Farg'ona: 2012. Tosheva D. XVI-XVIII asrlardagi siyosiy jarayonlardagi Mahdumi A'zam Kosoniy va uning izdoshlarining roli: -119 b.

ma’lumot yuqoridagi fikirni tasdiqlaydi. “Baroqxon va Abdulatifxon yuz mingdan ortiq lashkar bilan Buxoro ustiga yurush qilganlarida Mahdumi A’zam o‘z as’hoblari bilan Buxorodagi xonaqohida o‘tirgan edi. Shayboniy sulton Ubaydullaxonning o‘g’illari Abdulaziz va Muhammad Rahim u kishining huzuriga kelib, yordam so‘raydi va unga ikki shahzoda nomidan Baroqxoning oldiga elchi bo‘lib borib, Buxoro qamalini to‘xtatishini, Toshkent qo‘shinlarini olib ketishini so‘raydi. Bir necha daqiqadan so‘ng Xo‘ja o‘z as’hoblari bilan yo‘lga tushdi.

Mahdumi A’zam Baroqxonga shunday xitob qiladi: “Lashkar tortib o‘z mulkingizdan chiqishingizga ne hojati bor edi. Yurush qilinganda Xuroson ustiga borgan ma’qul edi. Bu g’azot bo‘lardi va katta o‘lja tushgan bo‘lar edi. Behuda taraddud qilib, musulmonlarni bezovta qilishdan murod ne edi? Maslahatim shulkim, yo Xuroson sari yuringiz yoki mulkingizga qaytmog’ingiz lozim toki, musulmonlar soyayi davlatingizda rohat farog’at topsinlar va davlatingiz duosida bo‘lsinlar[6]”.

Bundan ko‘rinib turibdiki, sulolaviy kurashlarda xo‘janing gapini hech bir Shayboniyzoda ikki qilaolmagan. Buning sababi esa o‘sha davrda Shayboniy hukumdorlarning aksariyati tariqat an’analariga muvofiq Mahdumi A’zamni pir tutishgan. Mahdumi A’zamdan keyin Naqishbandiya tariqatiga peshvolik qilish uning eng yaqin shogirdi, izdoshi xoja Muhammad Islomga meros sifatida o‘tdiki, Jo‘ybor xojalari nomi bilan mashhur bu tariqat shayxlari keyinchalik Buxoro xonligidagi siyosiy ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatga katta tasir o‘tkazdilar[7].

Mahdumi A’zam vafot etgandan so‘ng esa uning muridi hisoblangan Abdullaxonning (Abdullaxon ismini aynan Mahdumi A’zam Kosoniy qo‘ygan) otasi Iskandar Sulton uning ko‘plab hamfikrlari endi Xo‘ja Islom Jo‘yborga muridlikka o‘tadi[8]. Chunonchi, Xo‘ja Islom avlodlari ya’ni Jo‘ybori shayxlar

6 O’sha asar, 120-bet

7 O’sha asar, 121-bet

8Qandaharov A. Buxoro xonligi va unda Karmanalik shayxlik faoliyati. - T.: Tafakkur qanaoti nashiryoti. 2018. -38 b.

tashqi elchilik aloqalarida ancha faol bo‘lgan. Masalan, Hindistonda Boburiyzodalar bilan Buxoro xonligi elchilik munosibatlarida shayxlarning o‘rni yuqori darajada ekanligi bilan harakterlanadi. Elchilik aloqalarida Abdullaxon va Boburiy podshoh Akbarshoh o‘ratsida bir necha bor elchilar almashinuvi yuz bergan. 1572 yili Hindistonga Abdullaxonning birinchi elchisi Xo‘ja Oltamish keladi. Xo‘ja Oltamish elchiligi bilan birga sovg’a-salomlar va Abdullaxonning Akbar nomiga yozilgan maktubi berib yuboriladi. I. Nizomiddinov keltirishicha, maktubda Abdullaxon o‘tmishda Hindiston bilan Buxoro o‘rtasida do‘stona aloqalar mavjud bo‘lganligini bayon etib, yaxshi qo‘shnichilikda, hamjihatlikda bo‘lishlikni taklif qilgan[9].

I. Nizomiddinov ilmiy tadqiqotlariga ko‘ra, Abdullaxon o‘z elchisi orqali Eron territoriyasini Buxoro xonligi va Hindiston o‘rtasida bo‘lish rejasini ilgari surgan va bu rejani har ikki tomon ham sir saqlagan.[10]

“XVI-XVII asrlarda O‘rta Osiyo Hindiston munosibatlari” asarida jo‘ybori shayxlari va hind podshohlarining o‘zaro bir-birlariga “tuhfalar” yuborib turganliklari misollar keltiriladi. Asarda ko‘rsatilishicha, Jahongir podshoh Shayxulislom Tojiddinga ibn Xo‘ja S’ad ibn Xo‘ja Islom ikki marta “hadiyalar” yuborgan va shayx ham bu qilingan “marhamat iltifotlarga” o‘z navbatida javob qaytargan. Hind podshosining har galgisi 50 ming xoniy qimmatiga ega bo‘lgan matolari (kimhob, zarbof) va nodir buyimlar evaziga Shayxulislom ham Hindistonga umumiy qiymati 40 ming xoniydan ortiq qimmatga ega bo‘lgan qunduz po‘stinlar, morj tishi, chinni asboblar, qipchoq otlari, tez yurar tuyalar, ov qushlari, (tuyg’un, qarchig’ay, shunqor,) behla (charimdan yasalgan, ov qushlarini tutuvchi qo‘lga kiygiziladigan qo‘lqop)lardan 9 sidradan ikki martaba “tuhfa” qilib yuborilgan.[11] Shu narsa diqqatga sazovorki, har ikki tomonning “hadya tuhfalari” garchi turli xil mato va buyumlardan iborat bo‘lsa ham, ularning umumiy

9 Nizomiddinov I. XVI-XVIII asrlarda O'rta Osiyo Hindiston munosibatlari – T.: Fan 1966. – 21 b.

10 O’sha asar, 22- bet.

11 O’sha asar, 18-bet.

qimmatlari qariyib barobar kelardi. Bu esa tuhfa hadiyalarning haqiqatda mol ayriboshlashi asosida olib boriladigan savdo tovarlaridan iborat ekanini ko‘rsatadi. Tuhfa va hadiyalar qilish niqobi ostida olib boriladigan savdo boj to‘lamay savdo qilish imtiyozidan tashqari foydali imkoniyatlarga ham ega edi12. Masalan, Hindistonga kelgan Imomqulixonning rasmiy elchisi Jo‘ybori Abdurahimxo‘ja ibn Xo‘ja S’ad ibn Xo‘ja Islom turli sovg’a-salomlar bilan birga Jahongirga bir yirik la’l “tuhfa” qiladi. Jahongir ham Abdurahimxo‘jaga 40 ming rupiya pul va har biri 1500, 1000 va 500 misqol og’irlikdagi uchta oltin “kavkabi tole” hadiya etgan13.

“XVI-XVII asrlarda O‘rta Osiyo Hindiston munosibatlari” asaridagi ma’lumotlarga ko‘ra, Xo‘ja Abdurahimning Hindistonga borishiga quyidagi voqea sabab bo‘lgan. Hindistonda Shoh Salim (Jahongirshoh) bilan uning o‘g’li Shoh Hurram (Shoh Jahon) (1627-1658 h.k) kuchli kelishmovchiliklar paydo bo‘lgani to‘g’risidagi xabar Buxoroga ham yetib keladi14.

Kunlarning birida Xo‘ja Abdurahim Imomqulixonga shu haqida gap ochib, ota-bolani yarashtirib qo‘yish kerakli haqida gap ochganda. Imomqulixon Xo‘jaga qarab: bu-sizlar (yani jo‘ybari shayxlar) ning ishingiz, ota-bobolaringizdan tortib shu xil yumush bilan shug’illanib kelmoqdasizlar, deb javob qaytargan. Bu voqeadan so‘ng Xo‘ja Abdurahim Hindiston safariga taraddud ko‘rgan. Hindistonga elchilik vazifasi bilan kelgan Xo‘ja Abdurahim Buxoro xonining Xurosonni Hindiston va Buxoro o‘rtasida bo‘lib olish haqidagi taklifini ham bayon qilgan va Jahongirshohning vafoti munosibati bilan bu taklif amalga oshmay qolgan15. Jahongirshoh Kashmir viloyatiga sayr qilish uchun jo‘naydi va Abdurahimxo‘jani ham o‘zi bilan birga olib ketadi. Kashmirda avval Jahongirshoh vafot etadi ko‘p o‘tmay Xo‘ja

12 Nizomiddinov I. XVI-XVIII asrlarda asrlarda O'rta Osiyo Hindiston munosibatlari – Toshkent: Fan 1966. 19 bet

13 O’sha asar,o’sha betda.

14 O’sha asar, 46-bet.

15 O’sha asar, 47-bet.

Abdurahim ham (1627) vafot etadi. Xo‘ja Abdurahimni Chahorbog’da (Kashmir) dafn etadilar16. Shundan keyin ham Buxoro va Hindiston o‘rtasidagi elchilik munosibatlari yaxshi davom etib boradi. Balx hokimi Nadirmuhammad (keyinchalik Buxoro xoni) Shoh Xo‘ja elchiligi orqali Jahongir shohga 50 ming rupiyalik ot, turk qullari va boshqa buyumlar yuborgan. Subhonqulixon ham Balx hokimi bo‘lib turgan paytlari unga Boburiyzodalardan Shodmonxo‘ja orqali 25 ming rupiya pul, bir fil (nuqradan yasalgan egari bilan), 150 to‘p shol, “jomavar”, “chire”, gujorat “fo‘tasi”matolaridan berib yuboradi.17

Tarixda bir qancha savdogar Xo‘jalar ham bo‘lganki rasmiy ravishda elchilik aloqalar bilan shug’ilanmasa ham xufyona tarzda boshqa davlatlarga josuslik ma’lumotlarini yetkazib turishgan. Ulardan biri 1713 yilda Ashtarxonga kelgan mang’ishloqlik turkman savdogari Xo‘ja Nafas edi. Xo‘ja Nafas knyaz Mixail Samonov bilan uchrashib, o‘zaro til topishib ketishadi. Turkman savdogari undan katta vadalar oladi, Eronning Gilon viloyatining hukumdori bo‘lgan, lekin ayrim sabablarga ko‘ra Rossiyaga qochib kelib nasroniy diniga o‘tgan bu kimsa Xo‘ja Nafasni Sankt-Peterburgga taklif qiladi. Xo‘ja Nafas bu shaharda cho‘qintirilgan yana bir musulmon-knyaz Bekovich-Cherkasskiy bilan tanishadi. Xo‘ja Nafas unga Amudaryo sohili oltin qumlarga boyligi haqida gapiradi. U Rossiya uchun oltinning naqadar zarurligini yaxshi anglagani uchun bu haqda Pyotr I ga axborot beradi.18 Shuning uchun Pyotr I Xo‘ja Nafasni shaxsan o‘z huzuriga chaqirtiradi. Xo‘ja Nafas u bilan qilgan suhbatida qadim zamonlarda Amudaryo Kaspiy dengiziga kelib quyilganini, ammo, keyinchalik mahalliy aholi daryoni to‘g’on bilan to‘sganini va qurigan o‘zan ham oltinga boyligini aytadi. Xo‘ja Nafasning ma’lumotlarini aynan shu vaqtda Sankt-Peterburgga kelgan Sibr

16 O’sha asar, 49-bet.

17 O’sha asar, 20-bet

18 O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Huzuridagi Davlat va Jamiyat Qurilish Akademiyasi. O’zbekistonning yangi tarixi markazi. Turkiston chor Rossiyasi mustamlakachilligi davrida. -T.: Sharq, nashriyoti: 2000. - 29 b.

gubernatori Matvey Gagarin ham tasdiqlaydi va Yorkent shahri yaqinida Sirdaryo sohilidan olib kelingan oltin namunalarini unga ko‘rsatadi.[19]

XIX asr ikkinchi yarimida Buxoro amirligi, Xiva xonligi va Qo‘qon xonligi o‘rtasida ham elchilik aloqalarda shayxlarning o‘rni bir muncha ko‘zga tashlanib turgan. Xiva xonligi va Buxoro xonligi o‘rtasida elchilik aloqalarida Buxoro elchisi Dovud Xo‘ja miroxurboshi va Madadullo Xo‘jalar alohida o‘ringa ega[20]. 1860 yil 20-yil oktabrda Amir Nasrullo vafot etadi. Muzaffar to‘ra uning o‘rniga taxtga o‘tiradi. Otasining vafoti va o‘zining taxtga o‘tirgani munosibati bilan saroy amaldori Shohxo‘ja Sadrni yaxshi tuhfa va hadiyalar bilan Xiva xonligiga rasmiy elchi qilib jo‘natadi. Xiva bilan Qo‘qon xonligi o‘rtasida munosibatlarda Xo‘jalarning elchilik faoliyatlari haqida ma’lumotlar uchraydi. Misol uchun, 1855-yil Qubodxon Xo‘jani rasmiy farmon bilan Xiva xoni Qo‘qon xonligiga Xudoyorxon huzuriga elchi qilib jo‘natadi. Elchi xon tomonidan yaxshi kutib olinib, bir necha muddat mezbondorchillik qilinib, Xudoyorxon elchi hamrohligida o‘zining mukarram kishisi O‘run Xo‘ja Mirasadni elchilik rasmi bilan Xiva xonligiga yuboradi[21] . Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki Xonliklar o‘rtasida va tashqi elchilik aloqlarda shayxlarning tutgan o‘rnida muhum belgi bu din va millat birligi hisoblangan, va bu elchilarga qo‘l kelgan. Vaholanki elchilik rutbasi bilan tasgrif buyirayotgan shaxs mashhur bo‘lsa shayxning hurmat etibori joyiga qo‘yilib, ko‘pincha elchining rayiga qarab ish tutilgan. Shu munosibat bilan elchi ham o‘sha davirda islom olamida tepada ko‘rilib o‘tilganidek ko‘zga ko‘ringan ulamo bo‘lsagina, o‘sha davr podshohlar, xonlar o‘z manfatlaridan kelib chiqqan holda va diplomatik munosibatlarda chigal mavzular yechish yuzasidan va xalqning tinchligini o‘ylagan holatda shayxlarning nomidan unumli foydalanishgan.

19 O’sha asar, 30-bet.

20 Xayrullaev M. O’zbek diplomatiyasi tarixidan (Tarixiy ocherklar va lavhalar) -T.: 2003. -337 b.

21 O’sha asar 338-bet.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.

1. Muiiniddin Natanziy Muntaxab ut-tavorixi muiniy (Muiniy tarixlari tanlanmasi). - T.: O‘zbekiston 2011. -107 b.
2. Rajabov Q. Shayboniyxon. Buxoro mavjlari. 2016. - 45-49 b.
3. Qandaharov A. Buxoro xonligi va unda Karmanalik shayxlik faoliyati. – T.: Tafakkur qanaoti nashiryoti 2018. – 33 b.
4. Kattaev K.Mahdumi A’zam va Dahbed.-Samarqand:So‘g’diyona. 1994. - 8 b.
5. Farg’ona vodiysi tarixi yangi tadqiqotlarda mavzusida ikkinchi respublika anjumani. Farg’ona: 2012. Tosheva D. XVI-XVIII asrlardagi siyosiy jarayonlardagi Mahdumi A’zam Kosoniy va uning izdoshlarining roli: -119 b
6. Qandaharov A. Buxoro xonligi va unda Karmanalik shayxlik faoliyati. - T.: Tafakkur qanaoti nashiryoti. 2018. -38 b.
7. Nizomiddinov I. XVI-XVIII asrlarda O‘rta Osiyo Hindiston munosibatlari – T.: Fan 1966. – 21 b.
8. Nizomiddinov I. XVI-XVIII asrlarda asrlarda O‘rta Osiyo Hindiston munosibatlari – Toshkent.: Fan 1966. – 19 b.
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Huzuridagi Davlat va Jamiyat Qurilish Akademiyasi. O‘zbekistonning yangi tarixi markazi. Turkiston chor Rossiyasi mustamlakachilligi davrida. -T.: Sharq, nashriyoti: 2000. - 29 b.
10. Xayrullaev M. O‘zbek diplomatiyasi tarixidan (Tarixiy ocherklar va lavhalar) -T.: 2003. -337 b.